

“TIRILGAN MURDA” ASARI – TOM MA’NODA JAMIYATNI  
UYG‘OTISHGA DA’VAT

*Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi*

***Baxtiyorova Farangiz Ulug‘bek qizi***

[\*farangizbaxtiyorov@gmail.com\*](mailto:farangizbaxtiyorov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqola G‘afur G‘ulomning “Tirilgan murda” asari tahliliga bag‘ishlanadi. Ushbu asar orqali G‘afur G‘ulom jamiyat a‘zolarini o‘z hayotida tub burilish yasashi o‘z qo‘lida ekanligini tushuntiradi va doimo mehnatsevar bo‘lishga undaydi. Dangasalik oddiy his, ammo uni yenga olish birmuncha mushkul. Asar qahramonining ushbu mushkulotni qanday yenga olganligi va shuningdek, hayotda o‘z o‘rnini topganligi haqida boradi.

**Tayanch tushunchalar:** Vaqt qadri, dangasalik oqibatlar, Mamajonning illatlari, tarbiya, ota-onaning tarbiya berishdagi ahamiyati, halollik.

**Аннотация:** Статья посвящена анализу произведения Гафура Гулама «Воскресший труп». С помощью этой работы Гафур Гулам объясняет членам общества, что в их руках радикально изменить свою жизнь, и призывает их всегда быть трудолюбивыми. Лень – простое чувство, но побороть его достаточно сложно. О том, как герой пьесы преодолевает эту проблему, а также находит свое место в жизни.

**Основные понятия:** Ценность времени, последствия лени, пороки материнства, воспитание, значение родителей в воспитании, честность.

**Abstract:** The article is devoted to the analysis of Gafur Ghulam's work "Resurrected Corpse". Through this work, Ghafur Ghulam explains to the members of society that it is in their hands to make a radical change in their lives and encourages them to always be hardworking. Laziness is a simple feeling, but it is quite difficult to overcome it. It is about how the hero of the play overcomes this problem and also finds his place in life.

**Basic concepts:** The value of time, the consequences of laziness, the vices of motherhood, education, the importance of parents in education, honesty.

## KIRISH

Akademik G‘afur G‘ulom ijodi turli xil mazmun-mohiyatga ega doston, she‘r, qissalardan iborat. Ularning har biri o‘quvchi o‘zi uchun ahamiyatga ega bo‘lgan xulosalarni chiqarishi bilan bir qatorda, asar yozilgan davr ijtimoiy tuzumiga kirib borish va hatto hayoliy manzarasini tasavvur etishga ham ko‘maklashadi. G‘afur G‘ulom ushbu asarini 1934-yilda yaratadi. Asar nomini o‘qishingiz bilan umuman boshqa dunyo, voqealıklar haqida o‘ylaysiz, lekin asarni o‘qib bo‘lgach, har bir

soniyaning oltinga tengligini, harakatsizlikda o'tgan umr va uning oqibatlarini anglab yetasiz. Asarda umr tez o'tguvchi bir yo'l bo'lsa, o'sha yo'lning ikki tomonga boshlashi yoxud o'z xohishimiz bilan birini tanlashimiz qaysiki, dangasa va ishyoqmas bo'libmi yoki jamiyatga nafi tegadigan, qisqa yashasada katta natijalarga erisha oladigan shaxs bo'lish yo'lidan borishimiz mumkinligi yaqqol tasvirlab berilgan.

“Tirilgan murda” asari ikki qismdan iborat bo'lib dastlab, asar bosh qahramonining jamoa xo'jaligiga kirishigacha bo'lgan jarayonlar, ikkinchi qismda esa qayta tarbiyalanish jarayoni tasvirlanadi. Asar bosh qahramoni sifatida gavdalangan Mamajon – tanballikda, yalqovlikda har qanday kishini ortda qoldiradigan shaxs. Asarda o'rta asrlarda yaratilgan mashhur **“Ming bir kecha”** jamlanmasiga ham murojaat qilinadi. Bu asarda ham Mamajondan o'ta olmasada, uning dangasalik illatlari badiiy mahorat bilan solishtirib ketilgan - Abu Tanbal haqida ma'lumotlarni uchratamiz. Xo'sh, Mamajonning “murda” kabi tasvirlanib, hatto oyog'ini qimirlatishga hafsalasi bo'lmasligi va shu yoshga kirib, jamiyatda hech qanday o'rin egallay olmaganligiga asosiy sabab nimada? Bunda, tarbiyaning va atrofdagi muhit roli qay darajalik?

### ASOSIY QISM

Akademik G'afur G'ulom asarda Mulla Mamajon yalqov Muhammadali o'g'lining kundalik daftaridagi o'zi to'g'risida yozgan ma'lumotlardan foydalanadi. Mamajon – shu darajada tanbalki, otasining o'limidan keyin hatto, o'zi uchun ovqat tayyorlab yeyishni ham xohlamay, harakat qilishga og'rinib, bir necha kun och qoladi.

Mamajonning yozishicha, “Otam o'lib maishatim tanglikda qoldi. Bir necha kun och qoldim. O'rnimdan turib, otam ekib ketgan yarim tanobcha yerdagi jo'xorini qayirib olishga va buni pishirib tirikchilik o'tkazishga erinar edim”.<sup>1</sup> Mamajonning so'zlaridan ko'rinib turibdiki, uning hamma yumushlarini otasi bajargan. Ehtimol, Mamajonni eng ko'p tashvishiga va ruhiy ezilishiga olib kelgan voqea - otasining o'limi emas, balki otasi bo'lmasa, u kabi ishyoqmasning taqdiri ne kechishi, qanday qilib yashashi o'ylantirgandir. Demak, farzand ulg'aytirayotgan ota-onaning ham yaxshimi, yomonmi o'z farzandining tarbiyasida, xatti- harakatlarid javobgarligi bor. Agar asar qahramonining ota-onasi unga ehtiyoji bor narsalarni xohlagan payti muhayyo qilmasdan, istagan narsasi uchun o'zi harakat qilishi lozimligini uqtirishganda, Mamajonning taqdiri boshqacha bolishi mumkin edi.

“Ming bir kecha” asarida ham shu holatni kuzatishimiz mumkin, “... Xo'sh desangiz, Bag'dod degan shaharda Abu Tanbal degan bir yalqov yigit o'z onasi

---

<sup>1</sup> G'.G'ulom. “G'afur G'ulom asarlar”. Toshkent., 1973, 8-bet

qoshida yashar ekan. Onasi topib kelgan ovqatni ham chaynab og‘ziga solsa, yutgani erinar ekan”.<sup>2</sup>

Shu o‘rinda *Abdulla Avloniyning mashhur “Tarbiya bizlar uchun yo hayot- yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” – degan so‘zlari o‘z isbotini topadi.*

Shuningdek, “ *Mahalladagi keksalar kelib meni koyidilar, qaddimni ko‘tarishdan ko‘ra chollarning koyishlarini eshitish osonroq ko‘rinar edi*”<sup>3</sup> – deydi. Inson uchun odatiy holat, ya‘ni qaddini tutish, yurish va boshqa sodda jismoniy harakatlarni amalga oshirolmagan obrazdan tub o‘zgarishlarni kutish mushkul. Vaholanki, qaddini ko‘tarishdan ko‘ra, chollarning koyishini eshitishni afzal ko‘rgan odam, qanday qilib jamoat ishiga kirishib ketish va o‘zini o‘nglab olishi mumkin? Ammo, hayot – dono muallim, u o‘z vazifazini asar davomida va yakunida uddalaydi. Mamajonga saboq berib qo‘yadi.

Mamajonda boy bo‘lish haqida istak uyg‘onadi. Bunga u ko‘rgan tush sabab bo‘ladi.

Tushida bir boyning xotini Mamajonga turmush qurishini aytadi, o‘zi esa eridan ajralgani va eridan anchagina mol-mulk qolganligini, uni turmush qurgan insoniga taqdim qilishini ma‘lum qiladi. Mamajon tushning qiziq mahali uyg‘onib ketgani uchun afsuslanadi. Chunki unga bu holat ma‘qul tushgan edi. U nima qilsam Mirjalol boydek (asarning yana bir qahramoni) boyib ketar ekanman deya o‘ylay boshlaydi. Mamajon xohishiga erishish uchun tushidagi kabi oson yo‘llar, qiyinchilik tug‘dirmaydigan vositalar izlaydi.

Bugunchi? Umr bo‘yi ota-onasining quchog‘ida bo‘lgan, istagan xohishi o‘ylashi bilan ro‘yobga chiqadigan, ko‘zlagan maqsadlariga ham ularning beminnat yordamlari bilan erishayotgan o‘rni kelsa, maqsadsari yo‘liga ham ota-onasi olib borib qo‘yadigan shaxslar ham aslida dangasa va ishyoqmaslarning bir turi emasmi? Biroq, osonlik bilan erishilgan maqsadning qadri bir pullikdir. Albert Enshteyn ta‘kidlaganidek, “ *Hech qanday maqsad unga erishish uchun noloyiq vositalarni oqlaydigan darajada yuksak bo‘la olmaydi*”.<sup>4</sup> Rostdan ham, eng muhimi qo‘yilgan maqsadlarga o‘z kuchi va halol vositalar bilan erishmoqlikdir.

Mamajon kelajakda yashashi va kun ko‘rishi uchun bosh qotira boshlaydi. Ishyoqmaslik bilan hech narsaga erishib bo‘lmasligini anglab, ishga kiradi. Hammasi u o‘ylagandek silliq kechmaydi, yigit yoshiga kiringuncha, o‘rganmagan hunari,

<sup>2</sup> Arab ertaklar “Ming bir kecha”, T., ‘Yangi asr avlodi’, 2008

<sup>3</sup> G‘.G‘ulom. “G‘afur G‘ulom asarlar”. Toshkent., 1973, 10-bet

<sup>4</sup> <https://www.nationalgeographic.com/science/article/einstein-relativity-lasers-solar-genius-science>

qo‘liga kitob olmaganligi unga ko‘p bora pand beradi. Lekin, u o‘zgarishni uddalaydi. Hayotda bir insonning o‘zgarishiga atrofdagi kimsalarning ta’siri ham beqiyos. Mamajonning murda emas, shaxs sifatida rivoj topishida ikki obraz katta ahamiyat kasb etgan. Biri *Sattorqul, “Bas endi, yotaverma. Sal mehnatga ham qayish. Ranging joyiga kelib qolibdi. To‘lishibsan. Yur men bilan”*<sup>5</sup> – deya unga ish bergan, mehnatsevarlikka chorlagan.

Ikkinchisi esa Mamajonning xotini Qumri qiz edi. *“Mana uylanib ham oldim. Bilamagan ekanman. Qumri xotin emas, xalacho‘p ekan. “Maktabga chiqmasang, ovqat yo‘q”, deydi. Noiloj bultur chala qolgan savodimni chiqarayapman. U ham o‘qiydi. Hali unim kam, deydi, hali bunim kam deydi. Sigir olamiz, deydi, gilam olamiz, deydi”* – ta’kidlaydi Mamajon. Qumrining ro‘zg‘orni o‘ylashi, shu bilan birga tanballikda tengi yo‘q erini harakatlanishga va natijalarga erishishga boshlashi va bularning barchasiga sabr toqat qilishi tahsinga loyiq. O‘zbek ayollari asrlar silsilasida, har on oilasi, turmush o‘rtog‘i, ota-onasini tashvishini o‘ylab keladi. Ularning oqilonalik xususiyatlari jamiyat uchun ibratli oilalarning shakllanishi uchun katta poydevordir.

Ushbu asar “murda” timsolidan “mehnatkash” ruhiyatli odamga o‘zgara olgan shaxs haqida. Mamajonga nisbatan asar boshidagi paydo bo‘lgan salbiy fikrlar sekin – asta yo‘qolib, undan saboq olishni boshlaysiz. Negaki, bizning zamonimizda ham u kabi “murda” sifatida dangasalikni o‘ziga kasb qilib olgan, o‘z buyumlarini u joydan bu joyga olishga qo‘li bormaydigan insonlar yo‘q emas. Ular bu asarni o‘qisa, albatta, katta o‘rnak va chuqur xulosa olishlari turgan gap.

Tanballik, ishyoqmaslik inson ruhiyati bilan bog‘liq tushunchalardir. Shunday ekan, bu holatlarning butkul yo‘qolishi yoki zo‘rayib ketishiga sharoit yaratib berish faqat insonning o‘ziga bog‘liq bo‘ladi. “Dangasalik sizning dushmaningiz, unga qarshi urush e‘lon qiling (Hikmatlar 21: 25)

Tasavvur qilib ko‘raylik, agarda jamiyatdagi har bir individ butun millat o‘z dangasaligi bilan kurashsa, unga qarshi urush e‘lon qilsa, shunda ona tabiatni e‘tiborsiz kishilarning zararlashi, atrofdagi axlatni ko‘rib ishyoqmasligidan egilib olishni istamaganlarning kamayishiga, kitob o‘qishni rejalarining oxiriga qo‘yib, dangasaligi sababli kun oxiriga borib uyquni afzal ko‘rgan talabalarning ilmining yuksalishiga, yangi-yangi mo‘jizalar arafasida turgan va erinchoqligi sababli ishini oz muddatga kechiktirishni o‘ylab qo‘ygan olimlarning ixtirolarini tezroq yaralishiga, yangi kitob yozayotgan adibning shaxsiy muammolari natijasida tugallanmay qolgan asarining yakunlanib narsh etilishiga, ozgina dam olish kanda qilmaydi deya darslarini bir chetga yig‘ishtirib qo‘ygan maktab o‘quvchisining o‘qishini yaxshilanishiga, kun

<sup>5</sup> G‘.G‘ulom. “G‘afur G‘ulom asarlar”. Toshkent., 1973, 62-bet

sovug'ida ota-onamni ko'rgani boramanmi? Issiq uy durust deya qarorga kelgan noqobil farzandning ota-onasiga bo'lgan munosabatining o'zgarishiga, tanballigi sabab qurulishni yakunlamay qishda ko'chada qolgan odamning uyli bo'lishiga sabab bo'lar edi. Mashhur adib G'afur G'ulom ham ehtimol ushbu asari orqali xalqni uyg'otishga da'vat qilgandir.

### XULOSA QISM

Mamajon asar yakunida mehnatkash, vaqt qadrini biluvchi kishiga aylanadi. Asar oxirida kundalik yozishni nega davom ettirmadingiz deb so'ralganida, hazillashib : “ Hafsalam bo'lmadi, ishim ko'p edi”. deb javob beradi. Demak, asar qahramoni fursat g'animat ekanligini tushunib yetadi. G'afur G'ulom ham vaqt qadrini juda yaxshi bilgan va bu xususida boshqa bir ijod namunasida shunday yozadi

*G'uncha ochilgunch o'tgan fursatni*

*Kapalak umriga qiyos etgulik*

*Ba'zida bir nafas olgulik muddat-*

*Ming yulduz so'nishi uchun yetkulik.*

Vaqt qadrlay bilgan odam foydasiga yuradi. *Ibn Qayyum aytadi: “ Aslida, inson vaqti uning umridir. Vaqt bulutlardek o'tib ketadi. Kishi o'z zamoni va vaqtining qadrini bilishi, hatto biror lahzasini behuda o'tkazmasligi va shu asnoda eng afzal so'z va ishlarni bajarishi lozim. Doimo niyati yaxshilikda bo'lishi va bajariladigan amallarida sustkashlik qilmasligi kerak”.*<sup>6</sup> Demak, har bir uyqudagi odam uyg'onishi va necha asrlik xalqimiz bunyod etgan, mustahkam poydevorli davlat rivojiga hissa qo'shmog'i lozim!

### Foydalanilgan manbalar

1. G'.G'ulom. “G'afur G'ulom asarlar”. Toshkent., 1973, 8-bet
2. Arab ertaklar “Ming bir kecha”, T., ‘Yangi asr avlodi”, 2008
3. G'.G'ulom. “G'afur G'ulom asarlar”. Toshkent., 1973, 10-bet
4. <https://www.nationalgeographic.com/science/article/einstein-relativity-lasers-solar-genius-science>
5. G'.G'ulom. “G'afur G'ulom asarlar”. Toshkent., 1973, 62-bet
6. <https://islom.ziyouz.com/maqola/ulamolar-nazdida-vaqtning-qadri>

<sup>6</sup> <https://islom.ziyouz.com/maqola/ulamolar-nazdida-vaqtning-qadri>